



UO'T: 632.7:635.1

## REDISKA VA DAIKON EKINLARIDA *BREVICORYNE BRASSICAE* VA *APHIS GOSSYPPII* SHIRALARINING UCHRASHI VA ZARARI

**Topilova Saodat Kamoliddin qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [saodattopilova1@gmail.com](mailto:saodattopilova1@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rediska va daikon ekinlarida keng tarqalgan *Brevicoryne brassicae* va *Aphis gossypii* turlarining bioekologik xususiyatlari, uchrashi va zarar yetkazish darajasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari Toshkent viloyati sharoitida ushbu zararkunandalar populyatsiyasi mavsumiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatdi. *Brevicoryne brassicae* erta vegetatsiya bosqichida dominant tur bo'lsa, *Aphis gossypii* issiq davrda faol ko'payishi bilan ajralib turadi.

**Kalit so'zlar:** rediska, daikon, shira, bioekologiya, zararkunanda, *Brevicoryne brassicae*, *Aphis gossypii*.

**Аннотация.** В данной статье изучены биоэкологические особенности, распространение и вредоносность тлей *Brevicoryne brassicae* и *Aphis gossypii* на посевах редиса и дайкона. Результаты исследований показали, что популяции данных вредителей имеют сезонную динамику в условиях Ташкентской области. *Brevicoryne brassicae* доминирует на ранних стадиях вегетации, тогда как *Aphis gossypii* активно развивается в тёплый период.

**Ключевые слова:** редис, дайкон, тля, биоэкология, вредители, *Brevicoryne brassicae*, *Aphis gossypii*.

**Abstract.** This article investigates the bioecological characteristics, distribution, and damage potential of aphid species *Brevicoryne brassicae* and *Aphis gossypii* in radish and daikon crops. The results show that these pests exhibit seasonal population dynamics under the conditions of the Tashkent region. *Brevicoryne brassicae* dominates during early vegetation stages, while *Aphis gossypii* increases in abundance during warm periods.

**Keywords:** radish, daikon, aphids, bioecology, pests, *Brevicoryne brassicae*, *Aphis gossypii*.

### KIRISH

Rediska va daikon (*Raphanus sativus*) qishloq xo'jaligida eng muhim ildizmevali ekinlar qatoriga kiradi. Ushbu ekinlarda zarkunandalar kompleksi ichida ayniqsa shiralar katta zarar yetkazadi. Ular o'simlik sharbatini so'rib, fotosintiz jarayonini buzadi va hosildorlikni keskin kamaytiradi.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Rediska va daikon ekinlarida keng tarqalgan asosiy shiralarga *Brevicoryne brassicae* va *Aphis gossypii* kabi turlar kiradi [1; 466-b; 2]. *Brevicoryne brassicae* asosan Brassicaceae oilasiga kirivchi ekinlarda zarkunandalik qiladi. Maskur tur barglarning pastki qismida koloniya hosil qiladi va tez ko'payish xususiyatiga ega [4; 276-b].

*Brevicoryne brassicae* (karam shirasi) O'zbekistonda keng tarqalgan zararkunanda bo'lib [5], qishda tuxum yoki yetuk shaklda o'simliklarda qishlaydi. Bahorda lichinkalar rivojlanib, tez ko'payadi va har bir urg'ochi 30–40 ta lichinka beradi. Ikkinchi avloddan boshlab qanotli shakllar paydo bo'lib, yangi o'simliklarga tarqaladi.

*Aphis gossypii* polifag tur hisoblanadi va issiq iqlim sharoitida juda tez ko'payadi. Ushbu tur nafaqat o'simliklar shirasi bilan oziqlanadi, balki virusli kasalliklarni tarqatish orqali ham katta iqtisodiy zarar yetkazadi [3; 384-b; 2]. Bundan tashqari ular koloniyalar hosil qilib yashaydi va partenogenetik hamda jinsiy yo'l bilan ko'payadi. Bir urg'ochi kuniga 8–22 ta lichinka tug'ishi mumkin. Lichinkalik davri 7–9 kun, yetuk davri 12–20 kun davom etadi. Mavsum davomida 12–14 avlod beradi [6; 10-11b].

### MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotlar ochiq dala sharoitida rediska va daikon ekinlarida olib borildi. Ilmiy tadqiqotlar zoologiya, umumiy entomologiya, hamda qishloq xo'jaligi entomologiyasida ishlatiladigan kuzatish, tajriba, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot ishlari 2025-2026 yillarida Toshkent viloyatining Nazarbek, Qibray va Yangi yo'l tumanlarida olib borildi. Kuzatuv natijalari shuni kursatadiki rediska va daikon ekinlarida *Brevicoryne brassicae* va *Aphis gossypii* shiralari uchrashi kuzatildi. *Brevicoryne brassicae* turi rediska va daikon ekinlarining ilk rivojlanish bosqichida uchradi va ekinlarning rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Uning populyatsiyasi havo quruq bo'gan vaqtda ortdi.

*Aphis gossypii* turi rediska va daikon ekinlarida kamroq uchrasa-da, havo harorati ko'tarilishi bilan ularning ko'payishi kuzatildi. Mazkur ikki tur ham fotosentiz buzulishiga va ekinlarning o'sishiga sezilarli darajada zarar keltirgani kuzatildi.

### XULOSA

Tadqiqotlar rediska va daikon ekinlarida asosiy zarar yetkazuvchi shiralar *Brevicoryne brassicae* va *Aphis gossypii* ekanligini ko'rsatdi. *Brevicoryne brassicae* rediska va daikon ekinlarining dastlabki vegetatsiya bosqichlarida faol bo'ladi. *Aphis gossypii* esa issiq sharoitda tez rivojlanib, ko'p avlod beradi va virusli kasalliklarni tarqatadi.





---

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

---

Har ikkala tur fotosintezni buzib, o'sishni susaytiradi va hosildorlikni kamaytiradi. Shu sababli ularni muntazam monitoring qilish va samarali kurash choralarini qo'llash muhimdir.

### ADABIYOTLAR

1. Blackman R.L., Eastop V.F. Aphids on the World's Crops: An Identification and Information Guide. - 2nd ed. - Chichester: Wiley, 2000. - 466 p.
2. FAO. Integrated Pest Management Guidelines. - Rome: FAO, 2019.
3. Van Emden H.F. Pest and Vector Control.-Cambridge: Cambridge University Press, 2004. - 384 p.
4. Shchetina S.V., va boshq. Entomocomplex of radish crops in Ukraine // Scientific journal. - 2024. - URL: <https://www.researchgate.net>
5. Jumayev R. Tomorqa va dehqon xo'jaligi ekinlarida uchraydigan o'simlik shira turlari // Amaliy qo'llanma. - Toshkent, 2022.
6. Marupov. A., Mamadaliev. Sh.P., Rasulova. M.Sh./ REDISKA (*Raphanus sativus* var. *radicula*) ZARARLI ORGANIZMLARINI UYG'UNLASHGAN KURASH TIZIMIDA BOSHQARISH (IPM)-Toshkent – 2023 B. 10-11.